

## MEN O'ZBEKSTONLIK EKANLIGIMDAN FAXRLANAMAN

*Bo'tayeva Xursanoy**Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali*

**Annotatsiya:** Ikki daryo o'rtasida rivojlanib o'sayotgan mening beqiyos o'zbekistonim. O'zbekistonimning go'zal tarixi mehridaryo insonlari haqida ma'lumotlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentimizning yoshlar uchun yaratilgan sharoit va imkoniyatlari .Biz bu yurtdan nima uchun faxr tuyushimizning sabablari.

**Annotation:** My incomparable Uzbekistan, which is developing between two rivers. The beautiful history of Uzbekistan, information about the people of Mehridarya. The conditions and opportunities created by the President of the Republic of Uzbekistan for young people. Why are we proud of this country? Reasons

**Аннотация:** Мой несравненный Узбекистан, развивающийся между двух рек. Красивая история Узбекистана, информация о народе Мехридарья. Условия и возможности, созданные Президентом Республики Узбекистан для молодежи. Почему мы гордимся этой страной причины.

Vatan .Vatan .Vatan!.. Har qancha takrorlasak ham ohori to'kilmaydigan so'zdir. Ulkan cheksiz qudrat tayanch mavjudot bu ulug'vor so'zda .Vatan deb ,vatan uchun yashayotgan odamgina shu go'zal so'zni mehr va muhabbat ila tilga oladi dilida viqor ruhida salobat sezadi .Vatan bu ilk bor ko'zlarimizni ochib kindik qonimiz to'kilgan go'shadir.Mening vatanim tarifi cheksiz bo'lган O'zbekistondir .O'zbekiston bu jannatmakon va go'zal o'lka biz uni qancha tariflasak ham shuncha ozdir .

O'zbekiston dunyodagi eng qadimiyligi chiroyli va betakror o'lklalaridan biridir .Biz esa betakror zamin bag'rida yashaymiz ,uning musaffo havosidan,zilol suvidan ,beqiyos bolga to'lgan bog'lardagi sarxil mevalar ,tandirlarni to'ldirib turgan shirmoy nonlar-u beqiyos ne'matlardan bahramand bo'lamicha va shu vatanda tug'ulganimizdan yuragimizda faxr va iftixonar tuyg'usi uyg'onadi .O'zbekistonlik ekanligimizdan faxrlanishimizga yana bir sabab bu O'zbekiston qadimiyligi shaharlarga boy o'lka ekanligidandir .Samarqand ,Buxoro ,Xiva shaharlari juda qadim tarixga ega va ular qadimiyligi bilan ajralib turadi .Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "Vatanimizdagagi har bir viloyat ,tuman ,har qaysi shahar-qishloq barchasining o'zga xos qiyofasi fayz-u tarovati bor" deganlar .Samarqand qadimiyligi navqiron ta'rifiga til ojiz bo'lgan azim va ko'hna shahardir.U o'zining Registon ansambili Sher dor,Tillakori Mirzo Ulug'bek madrasalari ,Amir Temur maqbarasi,Bibixonim va Xazrati Xizr masjidlari va o'zining boshqa yodgorliklari bilan O'zbekistonda nafaqat jahonda ham mashhurligi faxrlanishimizning muhim sababidir.O'zbekistonni bir ko'rgan odam ,hech shuhbasiz uni sevib qoladi .Yurtimizga ming -minglab sayyoqlar tashrif

buyurishadiva ularning barchasi tarovatli, serquyosh zamin ularni o'ziga maftun etgani haqida to'lqinlanib hayajonlanib so'zlashadilar. O'zbekistonlik ekanligimizdan faxrlanishimizga yana bir sabab. O'zbekiston !Tuprog'i zar ,hosili gavhar ,odamlari saxiy ,bag'ri keng-u mehri daryoligi mehmondo'stligi va xushsuxanligidandir. Bundan tashqari Yurtimizda Prezidentimiz tomonidan "Yoshlarga oid davlat siyosatining qabul qilinishi ya'ni qonunda yoshlarni huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilish ,i'stedodni qo'llab quvvatlash qamrab olingan .Konstitutsiyamizning 41-moddasida bepul umumiy ta'lim olish huquqining yoshlar uchun kafolatlanganligi ham e'tiborga molikdir.42-moddasida esa har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi ,davlat jamiyatining madaniy ,ilmiy va texnikaviy rivojlanishga g'amxo'rlik qilinishi ham belgilangan .

Mana shularning mantiqiy davomi sifatida prezident maktabklari,Temurbeklar maktabi, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda yoshlarga berilayotgan zamonaviy ta'lim sohasining islohatlar va imkoniyatlar ustunidir .Respublikamizda xorjiy oliv o'quv yurtlarining bakalavriat bosqichi talabalari uchun ham prezident nomdor va davlat stependiyalari tashkil qilinishi yoshlarni kuchli bilim sohibi hamda vatanparvarlik ruhida voyaga yetishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi .Yana bir imkoniyatlardan biri sifatida xotin-qizlar uchun magistratura bosqichida ta'lim kontraktlarni davlat tomonidan to'lab berilishi va yana xotin -qizlar uchun foizsiz ta'lim kreditlarni joriy etilishi faxrlanishimizning arzigelik sababi desak mubolog'a bo'lmaydi .Samarali va yuksak faoliyat yuritayotgan yuqori natijalarga erishib tengdoshlariga o'rnak bo'layotgan yegit-qizlarimizni rag'batlantirish maqsadida "Mard o'g'lon "davlat mukofati va "Kelajak bunyodkori "medallarining ta'sis etilishi .Bu albatta O'zbekistonda yashayotganimizdan faxrlanishimizga arziydigan sabablar juda ham ko'p,bular esa bir nechtafigina xalos .

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. <http://nspi.uz/?p=19618>
2. <https://www.xabar.uz/ru/mualliflar/abrор-zohidov/ozbekligimdan-faxrlanaman>